



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## REGULATORY AND LEGAL BASIS REGULATING ACCOUNTING

G.A. Adilova<sup>1</sup>

Abdukarimova Sabina Botir qizi<sup>2</sup>

*Tashkent International University of Financial Management and Technology*

### KEYWORDS

Accounting, the law, codexes, the decisions, documents, national accounting standards, international standards of financial reporting, accountant, audit reports.

### ABSTRACT

This article describes the regulation of relations in the field of accounting organization, accounting and reporting, as well as regulatory legal acts, laws, presidential decrees and resolutions on accounting, national and international accounting standards that regulate accounting at various enterprises.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.13841289**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Associate Professor, Head of the Department of Economics and Management, Tashkent International University of Financial Management and Technology, Uzbekistan

<sup>2</sup> Student, Tashkent International University of Financial Management and Technology, Uzbekistan  
([sabinaabdukarimova176@gamil.com](mailto:sabinaabdukarimova176@gamil.com))

# BUXGALTERIYA HISOBINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLAR

**KALIT SO'ZLAR/****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Buxgalteriya hisobi, qonun, kodekslar, qarorlar, hujjatlar, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalter, auditorlik hisobotlari

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek turli korxonalarda buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar, Prezidentning buxgalteriya hisobiga oid qaror va farmonlari, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari bayon qilingan.

## **KIRISH**

Buxgalteriya hisobi har qanday korxona yoki tashkilotning moliyaviy holatini aniq va ishonchli aks ettirish uchun muhim vositadir. Biroq, bu jarayon faqatgina aniq qoidalar va tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar orqali boshqarilishi mumkin. Ushbu asoslar buxgalteriya hisobi jarayonining shaffofligi, ishonchliligi va umumiyligi xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar esa buxgalterlik amaliyotining qoidalari va me'yorlariga asoslanadi. Me'yoriy-huquqiy asoslar buxgalteriya hisobini standartlash va uni xalqaro talablarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning ahamiyati va bu sohadagi qonuniy tartiblar olib berilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar korxonalar moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qoidalari to'plamidan iborat. Bu hujjatlar quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan:

- Buxgalteriya hisobining yagona va xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash;
- Moliyaviy axborotning to'g'ri, ishonchli va aniq bo'lishiga erishish;
- Korxona va tashkilotlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini ochiq va shaffof tarzda taqdim etishga sharoit yaratish.

### 1. Milliy buxgalteriya standartlari

Milliy buxgalteriya standartlari har bir mamlakatning o'z iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy tizimiga moslashtirilgan hujjatlardir. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri – "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Ushbu qonun buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplarini belgilaydi, hisob siyosatini shakllantirish va amaliyotga joriy etish qoidalari tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi Milliy Buxgalteriya Standartlari (MBS) asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartlar korxonalarining moliyaviy axborotlarini to'g'ri aks ettirish va xalqaro amaliyotga mos keladigan hisob usullarini taqdim etadi.

### 2. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) butun dunyo bo'ylab korxona va tashkilotlarning moliyaviy hisobotini standartlash uchun ishlab chiqilgan qoidalar va qabul qilingan me'yorlar to'plamidir. Bu standartlar xalqaro savdo-sotiq va investitsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni yengillashtirish, moliyaviy hisobotlarni bir xil qilish uchun mo'ljallangan.

Xalqaro standartlar milliy buxgalteriya qoidalariga ko'ra qisman farq qilishi mumkin, ammo ular moliyaviy ko'rsatkichlarni to'g'ri va ishonchli aks ettirish uchun zarur hisoblanadi. Korxonalar xalqaro bozorga chiqishni rejalashtirsa, ular MHXS standartlariga rioya qilishi shart. Ushbu standartlar korxonalarining moliyaviy holatini dunyo miqyosida tan olish va global investorlarga ishonchli ma'lumot taqdim etish imkoniyatini beradi.

### 3. Soliq kodeksi va soliq hisobotlari

Buxgalteriya hisobini tartibga solishda Soliq kodeksi alohida ahamiyatga ega. Korxonalarining soliqqa tortish jarayonida to'g'ri hisobot yuritishi ham buxgalteriya hisobining muhim qismi hisoblanadi. Soliq kodeksi korxonalar qanday soliqlar to'lashi kerakligini, soliq hisobotlarini qanday shakllantirish va taqdim etish qoidalarini belgilaydi. Bu jarayon moliyaviy hisobotlarning aniq va qonuniy asosda yuritilishiga xizmat qiladi.

Soliqqa tortish maqsadida buxgalteriya hisobining alohida bo'limlari ishlab chiqilgan bo'lib, unda daromadlar va xarajatlar to'g'ri aks ettirilishi, soliq to'lovlar hisoblanishi va bu jarayon huquqiy me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi ta'minlanadi.

### 4. Auditorlik va moliyaviy nazorat

Korxonalarda buxgalteriya hisobotini tekshirish va nazorat qilish uchun auditorlik jarayoni amalga oshiriladi. Auditorlik korxona moliyaviy hisobotlarining to'g'rilibini va qonuniy me'yorlarga muvofiqligini baholaydi. Auditorlik hisobotlari korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha xolis axborot taqdim etishga yordam beradi va buxgalteriya hisobining to'g'rilibini tasdiqlaydi.

Shuningdek, korxonalarda ichki moliyaviy nazoratni amalga oshirish tartibi ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish, hisobotlarning aniqligini ta'minlash va xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

### 5. Axborot xavfsizligi va shaffoflik

Buxgalteriya hisobotlarini yuritishda axborot xavfsizligi va shaffoflik masalalari katta rol o'ynaydi. Korxonalarda moliyaviy axborotlarning sir saqlanishi va xavfsizligi ta'minlanishi lozim. Shu bilan birga, aksionerlar, investorlar va davlat idoralari oldida hisobotlar shaffof va to'liq bo'lishi talab qilinadi. Bu esa ishonchli boshqaruv va korxona barqarorligini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar asosiy hujjatlar hisoblanishadi. Mana shu asoslarga tayangan holda buxgalteriya hisob va hisobotlari tuziladi va korxonalarini ish faoliyatları yuritiladi. Xususan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida ta'kidlanganidek, "Ushbu Qonunning maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat" [1.1]. Shuningdek ushbu qonunning 2-moddasida

ta'kidlanganidek, "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir" [1.2]. Korxonalarining soliqqa oid munosabatlari Soliq Kodeksining 1-moddasida belgilanganidek, "Ushbu Kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi [2.1]. Har bitta korxona ish faoliyatida bir nechta xodimlarni ishga oladi, ular bilan mehnat shartnomalari tuzadi, xodimlarni ta'tilga chiqarishadi, umuman olganda xodimlar bilan bog'liq barcha jarayonlar Mehnat Kodeksiga asosan, xususan uning 1-moddasida bayon qilinganidek, "Ushbu Kodeks xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi [3.1]. Shuningdek Prezidentning buxgalteriya hisobiga oid qaror va farmonlari, xususan 2020 yil 24-fevraldagagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori [4.1] va 2023 yil 04-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son Qarori [5.1] kabilarni keltirish mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni tushuntirishga oid 2020 yil 24-avgustdagagi 507-son Qarori bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 1-bobida takidlanganidek "Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibini belgilaydi. [6.1]. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 9-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 3400-sonli buyrug'ida 62 ta ilova ishlab chiqilgan [7.1]. Qolaversa buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BHMS) 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning umumiyligi qoidalar qismida "Mazkur Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini normativ tartibga solish elementi bo'lib hisoblanadi. Mazkur standart boshqa BHMSlar bilan birgalikda qo'llaniladi" [8.1] deb takidlangan. Bundan tashqari korxonalarining o'zining ichki normativ hujjatlari ham buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar sanaladi [9.1].

Umuman olganda buxgalteriya hisobi davlat tomonidan nazorat qilinadi. Bunga turli davlat organlari, xususan, soliq xizmati, auditorlik tashkilotlari va boshqa nazorat qiluvchi organlar kiradi. Ular korxonalar tomonidan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning qonuniy va aniq yuritilishini tekshiradilar.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytib o'tish mumkinki, hozirda yurtimizda buxgalteriya hisobiga oid barcha qonunlar, qarorlar, farmonlar va nizomlar ishlab chiqilgan, hamda ushbu hujjatlar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu hujjatlat buxgalteriya hisobini huquqiy tomondan tartibga solishda asosiy vositalar hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytganda, ushbu qonun hujjatlari jamiyatimizni, ishlovchilarining keng imkoniyatlarini yaratish maqsadida, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashda va uni bartaraf etishda, ish sifatini yaxshilashda, vaqtini tejashda va boshqa ko'plab imkoniyatlar uchun xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar korxonalar moliyaviy faoliyatining samaradorligi va shaffofligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari, soliq kodeksi, auditorlik va moliyaviy nazorat bu jarayonni qonuniy me'yorlarga moslashtiradi. Buxgalteriya hisobi qonunlarga muvofiq amalga oshirilishi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, uning xalqaro maydondagi obro'sini oshiradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 13.04.2016 y. №404, <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (30.12.2019), <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi (28.10.2022), <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-4746047>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 04-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-6591947>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24-avgustdag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 507-son Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4966554>
7. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 9-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 3400-sonli buyrug'i, <https://lex.uz/uz/docs/-6312360>
8. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS), <https://lex.uz/nsbu>
9. Uzakov U.A. "Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar" "International scientific conference on the topic "Effectiveness of

using innovative technologies in agriculture and water management" 2024 year The 23-24  
rd of February Bukhara